

UDK: 811.512.133'37+811.112.2'37

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SO'Z VA TUSHUNCHA MA'NOSINING QIYOSIY TADQIQI¹³

Jumaniyazov Atabay

filologiya fanlari nomzodi, professor,
Urganch davlat universiteti.

atabeyj@yahoo.de

Yusubova Chamangul Mamutjonovna

tayanch doktorant,

Urganch davlat universiteti

chamangul.yusupova.1989@mail.ru

Orcid ID: [0000-0002-4952-6156](https://orcid.org/0000-0002-4952-6156)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillarida so'z ma'nosi va tushuncha borasida to'xtalangan. So'zning moddiy jihatdan tovush va harflardan iboratligi, yozma konkret shaklga ega ekanligi va ma'naviy jihatdan tushuncha, ma'no, mazmun va zamir bilan bog'liqligi, ma'nolarining o'zgarishi kabi juda ko'p murakkab xususiyatlarni kashf va kasb etishi, so'zning ilmiy tahliliga qiziquvchilarning til sohasi bo'yicha ixtisosligiga qarab turli tomondan tahlil qilinilishiga olib keldi va kelmoqda. Maqola davomida so'z ma'nosi va tushuncha borasida o'zbek va nemis tilshunoslarining fikrlari keltirilgan, tahlil qilingan. "ma'no" va "tushuncha" bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalar bo'lib, ikkalasi ham muayyan so'z orqali berilayotgan xabar yoki ma'lumotni bildiradi. So'z orqali berilgan ma'lumot ya'ni so'zning ma'nosi to'liq tushuniladi. "Ma'no" orqali anglashayotgan xabarni aniq va xususiyliigi, "tushuncha" orqali esa ma'lumotni noaniq va umumiyliigi bilan ajralib turadi. "Tushuncha" so'z yoxud so'z orqali nomlangan narsa va hodisa haqida to'la bilimga ega emaslik, yoki umumiy (aniq va konkret bo'lmagan) tasavvur mushohadasini bildiradi.

KALIT SO'ZLAR

So'z, ma'no, tushuncha, ishora, obektiv borliqdagi narsa va hodisalar, axborot, umumiylik, tasavvur, zamir, shaxs nomlari

Received: January 11, 2024

Accepted: March 16, 2024

Available online: May 2, 2025

¹³ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Jumaniyazov A., Yusubova Ch. O'zbek va nemis tillarida so'z va tushuncha ma'nosining qiyosiy tadqiqi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 177-194.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА И ПОНЯТИЯ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

Джуманиязов Атабай

Кандидат филологических наук, профессор
Ургенчский государственный университет.

atabeyj@yahoo.de

Юсубова Чамангул Мамутжоновна

Базовый докторант
Ургенчский государственный университет

chamangul.yusupova.1989@mail.ru

Orcid ID: [0000-0002-4952-6156](https://orcid.org/0000-0002-4952-6156)

АННОТАЦИЯ

В данной статье на материале узбекского и немецкого языков рассматриваются значение слова и понятие. Тот факт, что слово обладает множеством сложных свойств, таких как материальное воплощение в звуках и буквах, наличие конкретной письменной формы, духовная связь с понятием, значением, содержанием и подтекстом, а также изменчивость значений, уже привел и продолжает приводить к тому, что научный анализ слова в языкознании проводится с разных сторон в зависимости от специализации исследователей. В статье представлены и проанализированы взгляды узбекских и немецких лингвистов на значение слова и понятие. «Значение» и «понятие», будучи неразрывно связанными друг с другом явлениями, выступают как сообщение или информация, передаваемые определенным словом. Информация, передаваемая через слово, то есть значение слова, полностью понимается. Сообщение, воспринимаемое через «значение», характеризуется точностью и конкретностью, а через «понятие» - неопределенностью и обобщенностью. «Понятие» подразумевает отсутствие полного знания о слове или обозначаемом им предмете или явлении, или же общее (неточное и неконкретное) представление о них.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Слово, значение, понятие, знак, объекты и явления объективной реальности, информация, обобщённость, представление, подтекст, имена собственные.

A COMPARATIVE STUDY OF WORD MEANINGS AND CONCEPTS IN THE UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Jumaniyazov Atabay

candidate of philological sciences, professor,
Urgench State University.

atabeyj@yahoo.de

Yusubova Chamangul Mamutjonovna

PhD student,

Urgench State University

chamangul.yusupova.1989@mail.ru

Orcid ID: [000-0002-4952-6156](https://orcid.org/000-0002-4952-6156)

ABSTRACT

This article explores the meaning and concept of words in Uzbek and German languages. The complex properties of words have led to their analysis from various perspectives in linguistics. Throughout the article, the views of Uzbek and German linguists on word meaning and concept are presented and analyzed. “Meaning” and “concept” are closely related phenomena, both expressing the message or information conveyed through a specific word. Information conveyed through words, that is, the meaning of the word, is fully understood. When it comes to communication, the information conveyed through “meaning” is often known for its precise and well-defined nature, while “concept” tends to be more vague and general, leaving room for interpretation and ambiguity. “Concept” refers to a lack of complete knowledge of a word or a word-named object or phenomenon, or a general (non-specific and abstract) perception or contemplation.

KEY WORDS

Word, meaning, concept, pointing, things and incidents in objective world, information, generality, imagination, core, personal names

KIRISH

Tilning eng muhim birliklaridan biri soʻz, uning tabiati va mohiyati haqida, har bir soʻzning oʻz shakli va maʼnosi boʻlishi borasida, shakl oʻz koʻrinishini iloji boricha saqlab, ammo uning maʼnolari uzluksiz oʻzgarib turishi mumkinligi mavzusida dunyo tilshunosligida koʻp va xoʻp soʻzlar aytilgan. Soʻz tabiatan serqirra til birligi-ki, unga “uch-toʻrt ogʻiz soʻz va uch-toʻrt ogʻiz jumla bilan ham toʻla taʼrif berib boʻlmaydi” (Хожиев А., 1981, 6). Undan tashqari, soʻzning moddiy jihatdan tovush va harflardan iboratligi, yozma konkret shaklga ega ekanligi va maʼnaviy jihatdan tushuncha, maʼno, mazmun va zamir bilan bogʻliqligi, maʼnolarining oʻzgarishi kabi juda koʻp murakkab xususiyatlarni kashf va kasb etishi, soʻzning ilmiy tahliliga qiziquvchilarning til sohasi boʻyicha ixtisosligiga qarab turli tomondan tahlil qilinishiga olib keldi va kelmoqda. Ilmiy izlanishlar oʻz ijobiy samarasini berish bilan bir qatorda, muayyan salbiy, haligacha toʻlaqonli yechilmagan, ayrim hollarda eʼtiroz uygʻotuvchi xususiyatlarga ega tahlil natijalari bilan xarakterlanadi. Shu maʼnoda mazkur maqolamizda inobatga olinayotgan masala, xususan soʻzlarning maʼno va tushuncha masalalariga toʻxtalamiz va bu borada aytilgan ijobiy va salbiy fikrlarga baholi qudrat shaxsiy mulohazalarimizni bildiramiz. Avvalo, soʻzning maʼnaviy tomonlari bilan yaqin bogʻliq boʻlgan “soʻz va tushuncha”, “soʻz va maʼno” mavzulariga toʻxtalamiz. Nainki, biz qiyoslab oʻrganayotgan nemis va oʻzbek tillarida “maʼno va tushuncha” hodisalariga har xil yondashilgan, farqlariga eʼtibor kam berilgan, maʼnodosh soʻzlar sifatida qaralgan yoki aralashtirib oʻrganilgan.

Dastavval mazkur masalaga oʻzbek tilshunoslarining munosabatlarini koʻrsatib oʻtamiz. Bilamizki, oʻzbek tilshunosligida soʻzlarning maʼnosi va soʻzlar orqali nomlanilayotgan narsa va hodisalar haqidagi tushuncha mavzusida koʻp ilmiy ishlar qilingan va qilinib kelayapti. Oʻzlarining ayniqsa semasiologik, onomasiologik muammolariga bagʻishlangan ilmiy ishlarida tilshunoslarimiz bu masalani baholi qudrat tahlil qildilar. Tilshunoslik, leksikologiya, stilistika, semasiologiya fanlari boʻyicha yozilgan darsliklarda esa bu temalarga alohida boblar ham ajratilgan. (Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М., 1981; Ирисқулов

M., 1992; Ҳожиёв А., Аҳмедов А., 1981; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ., 1983; Миртожиев М.М., 2010; Миртожиев М.М., 2008; Миртожиев М.М., 1984; Миртожиев М.М., 2000). Mazkur olimlarning ishlari va nashr qilingan darsliklar bilan tanishar ekanmiz, bizda eng katta qiziqishni M.М. Mirtojievning ishlari uygʻotdi (Миртожиев М.М., 2000). Bu olim oʻz tadqiqotlari (doktorlik ishi, darsliklari, oʻquv qoʻllanmalari va koʻplab ilmiy maqolalari) da milliy tilshunosligimizning “maʼno va tushuncha” bobiga izchil yondashadi, masalani keng tahlil qiladi, nisbatan eng ilgʻor va shu bilan bir qatorda shaxsiy(bahsli) fikrlar aytadi. Jumladan, “maʼno va tushuncha” oʻrtalaridagi oʻxshashlikni: “narsa, belgi, harakat va holatning ongdagi aksi, angʻlanishi tushuncha boʻlib, tushuncha esa soʻzga berilar ekan, u maʼno hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Maʼlumki, soʻz maʼnosi asosida asosan tushuncha yotadi. Soʻz maʼnosini oʻlchash uchun tushuncha mezon hisoblanadi. Biroq, tushuncha bilan til farqli hisoblangan maʼnoni teng qilib ham boʻlmaydi” deydi-yu, ular oʻrtasidagi tafovutni quyidagicha 6 guruhga boʻlib sharhlaydi (Миртожиев М.М., 2000).

1. Obyektiv borliqdagi mavjud narsa yoki voqelikmi, belgimi, harakat yoki holatmi, ulardan birining ongdagi inʼikosi, tushunchadir. Shu tushunchaning soʻzdagi ifodasi, bu – maʼno. Lekin maʼno bu bilan chegaralanib qolmaydi. Soʻz maʼnosida yana ongning oʻsha denotatga boʻlgan subyektiv munosabati ham boʻlishi kuzatiladi. Masalan, *yuz* soʻzi kishi boshining ogʻiz va burunning ikki tomonidagi yumshoq qismini bildiradi. Bu oʻrinda tushuncha bilan maʼno teng. *Bashara* soʻzi ham oʻsha tushunchani bildiruvchi maʼnoga ega. Ammo bu maʼnoda oʻz denotatiga nisbatan salbiy munosabat ham oʻz ifodasini topgan. Tushunchada bu boʻlishi mumkin emas.

Tushuncha va maʼno borasidagi mazkur izohlar tahsinga loyiq. Zero, bir qarashda olim fikrlariga falsafiy jihatdan eʼtiroz yoʻq. Biroq, sharhlarga chuqurroq nazar tashlansa, aytilgan teran fikrlarni sayqallash zarurati borday tuyuladi. Birinchi gapdagi, *ulardan birining ongdagi inʼikosi, tushunchadir* degan fikrda “*ulardan birining*” iborasini olib tashlansa va *kishi ongidagi nisbiy inʼikosi*,

tushunchadir deb, “*kishi*” va “*nisbiy*” soʻzlari qoʻshib taʼriflansa fikr teranroq chiqadi. Binobarin, voqelik, belgi, harakat yoki holatlar obyektiv borliqning alohida koʻrinishlari boʻlib, ulardan *birini* ajratib taʼkidlash kishi fikrini chalkashtiradi. Keyinchalik, *ong* bor narsa, u kishilarga Ilohdan tugʻma beriladi va nisbiy boʻladi, birovda koʻp, birovda oz. Bu kishilik jamiyatiga xos narsa va uni falsafa oʻrganadi. Navbatdagi: *Shu tushunchaning soʻzdagi ifodasi, bu maʼno*, taʼrifida ikki xil yondashuv falsafa (*tushuncha*) va soʻz (*til birligi*) aralashtirilgan, chegara farqlanmagan. Toʻgʻri, soʻz va maʼnoni falsafa ham tilshunoslik ham oʻrganadi. Lekin, soʻz va maʼno nima ekanligi ongimiz(falsafa)da gavdalansa, tilda ularning tilshunoslik nuqtayi nazardan muayyan taʼriflari bor. Shu nuqtayi nazardan, tushunchaning soʻzdagi ifodasi bu maʼnodir deyish bilan aytilmoqchi fikr teran chiqmaydi. “Maʼno” boʻlishi uchun, tushuncha soʻzda ifodalanishi kerak degan xulosa chiqishi tabiiy. Darvoqe, tushuncha verbal soʻz (til) orqali yoki noverbal imo-ishora (mimika-jest) yordamida ifodalanadimi yoki yoʻqmi, baribir tushuncha tushunchaligicha qoladi. Tushuncha orqali bildirilayotgan narsa esa u boshqa mavzu. U tushunchani ifodalayotgan soʻz va uning isteʼmoldagi konkret maʼnosiga bogʻliq. Bundan tashqari, mushohada kengroq qilinsa, tushunchaning maʼno anglatmasligi, balki maʼno muayyan tushunchalarning shakllanishiga asos boʻlishi namoyon boʻladi.

Olimning oʻz fikrlarini quvvatlash uchun keltirgan misollari ham muvaffaqiyatli chiqqan deb boʻlmaydi. *Yuz* va *bashara* soʻzlari orqali tashilayotgan maʼlumotni toʻgʻri tushunishda maʼno va tushuncha (ikkisi ikki xil narsa)ni teng koʻrish yoki bu soʻzlarning salbiy va ijobiy xususiyat(maʼno)- larini tushunchaga bogʻlab farqlash, masala mohiyatini anglashni yengillashtirmaydi. Binobarin, *yuz*, *bashara* va ularga sinonim chehra, oraz, ruxsor, aft, turq kabi soʻzlar orqali ham *kishi boshining ogʻiz va burunning ikki tomonidagi yumshoq qismi* maʼnosidagi tushunchaga ega boʻlishi mumkin. Biroq bu narsalarni tilning leksikologiya (soʻz va uning maʼnolarini oʻrganish) sathi emas, balki ikkinchi bir sath stilistika (soʻz maʼnolarini saylab, ulardan toʻgʻri foydalanish uslubi) oʻrganadi. Aytmoqchimizki, maʼno va tushunchani teng qoʻyish (dunyoda teng narsa yoʻq), turli sathlar nuqtayi

nazaridan o'xshash va farqli hamda bog'liq tomonlarini baravariga o'rganish ularning tadqiqida murakkablik tug'diradi. Nainki, tushuncha ong (aql, miya, qalb) bilan, ma'no esa bevosita so'z bilan bog'liq. So'z orqali berilgan ma'lumot ya'ni so'zning ma'nosi to'liq tushuniladi yoki inson ongiga qarab nisbiy tushunchalar hosil bo'ladi. Lo'nda qilib aytganda, ma'nodan tushunchalar yaraladi, tushunchadan ma'no emas.

2. Tushuncha hamma millat va hamma joyda ham bir xil baynalmilal holatda kuzatiladi. So'z ma'nosi esa milliy xarakterda bo'ladi. Masalan, свежий so'zi rus tilida har narsaning yangi holatini bildiradi: свежий хлеб, свежая вода, свежая тетрадь kabi. Ammo o'zbek tilida shu bir so'z ayni bir ma'nosi bilan issiq non, muzday suv, yangi daftar kabi tarjima qilinadi. Albatta, bu milliy sharoitdan, denotatga milliy qarashdan kelib chiqib nomlash orqali yuzaga kelgan.

M.M.Mirtojiyev "tushuncha"ning ikkinchi xususiyatini izohlashda, uning millatga, millatlar yashaydigan hudud(joy)larga bog'liq bo'lmasligini ta'kidlaydi va to'g'ri qiladi. Zero, ong-tushunish qobiliyati tug'ma beriladi va u orqali na irq, na millat, na jins, na shaxs va gado, na boy va kambag'al farqlanadi. Ong -tushunish qobiliyati faqat birovda kuchli yoki birovda kuchsiz bo'lishi mumkin. Shu ma'noda tilshunos olim M.M. Mirtojiyev mutlaq haqdir. Biroq, uning *so'z ma'nosi esa milliy xarakterda bo'ladi* degan fikrini nisbiy tushunmoqlik kerak. Zero, dunyo tilshunosligida so'zning aslida to'rt ma'no xususiyati borligi ta'kidlaniladi: u narsalarni nomlaydi(ataydi), narsalarni ko'rsatadi, u o'zi orqali nomlangan(atalgan) narsa yoki hodisalar borasida ma'lumot beradi va o'zi nomlagan (atagan) narsa yoki hodisalarning nomini ichki, tashqi va mantiqiy o'xshashliklar asosida ikkinchi bir narsa va hodisaga ko'chirishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi tavsifda so'zda milliy ma'no bo'lishi mumkinligi qayd qilinmagan.

Olimning so'zda milliy ma'no bo'ladi ta'kidi, bizning fikrimizcha dunyo tamaddunida millatlarning paydo bo'lishi (XVIII asr Yevropada, ijtimoiy munosabatlarning feodalizm shaklidan kapitalizm shakliga o'tish jarayoni) natijasida xalqlarning bir-biridan farqlarini ulug'lab yoki kamsitib ko'rsatish siyosiy jihatdan zarur topilib, milliy ong, milliy tushuncha, milliy til, milliy ovqat,

milliy kiyim, milliy turmush, milliy hayot hatto fan sohalari ham milliy matematika, milliy fizika, milliy tarix deb nomlana boshlanganligi va bu nomlanishlarga dunyo xalqlarining aksariyat qismi xayrixoh (hech qanday e'tirozsiz) qarab kelayotganligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Masalaga mantiqan yondashgan, ong (dunyoni tushunish qobiliyati) ning, so'z (nom) ning – ta'limi asmoning tug'ma berilishiga iymon keltirgan holda hamda biz tahlil qilayotgan mavzu nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, “tushuncha” va “so'z ma'nolari” milliylikni kasb yoki kashf etadi deyilishi e'tirozlidir.

Odamlar tananing shakli, qiyofasi, rangi, bo'y-basti, sog'-kasalligi, farishtali-farishtasizligi, ruhining esa baland-tushkunligi, kuchli-ojizligi bilan farqlanadi. Avvalo, odam (xalq) lar o'rtasida millat ayirib, ularni millatlarga bo'lib, so'ngra esa ular tanasini, milliy shaklga, milliy qiyofaga, milliy rangga, milliy bo'y-bastga, milliy sog' yoki kasalga, milliy farishtali yoki farishtasizlikka, ruhining esa milliy balandga, milliy tushkunga, milliy kuchliga, milliy ojizga sifatlab talqin qilish muloqotda mantiqsizlik keltirib chiqaradi. Fikrimizni muloqotda hali shakllanmagan (ulgurmagan) milliy anatomiya, milliy biologiya, milliy geografiya, milliy suv, milliy havo, milliy tuproq so'z birikmalarini yo'qligi bilan quvvatlash mumkin. Agar bir kun kelib, ular ham millat uchun umumxarakterga ega bo'lib, hozirgi kundagi milliy ong, milliy tushuncha, milliy ma'no, milliy fan, milliy hasad, milliy baxillik, milliy bag'rikenglik birikmalari kabi iste'molda foydalana boshlansa Alloh Taolaning odamlarga bergan benazir inoyati unutilib, millatni esa buyuklagan, Kabir (Akbar) darajasiga ko'targan bo'lamiz.

Endi olimning shaxsiy fikrini dalillash bobida keltirgan *свежий хлеб, свежая вода, свежая тетрадь* so'z birikmalarini o'zbek tiliga *issiq non, muzday suv, yangi daftar* deb tarjima qilinishi yoki tushunilishiga kelsak, unga milliy masala deb qaralishi ham e'tirozli. Zero, tarjimaga millatning aloqasi yo'q. Agar millatga aloqasi bor deb tushunilganda ham, u bevosita millatning o'ziga emas, o'sha millat sohibining ongi, tushunchasi, bilimi-tajribasi va eng asosiysi rus tili lug'at tarkibiga qarashli “свежий” leksemasining ma'nolarini aniq bilishiga bog'liq. Ma'lumki, mazkur leksema polisem bo'lib, uning “Большой русско -

узбекский словарь” lugʻatida quyidagi 11 maʼnosi izohlanilgan: “1. yangi, urinmagan, buzilmagan, aynimagan; 2. yangi chiqqan, endigina uzilgan, terilgan; barra; yangi; 3. yangi, tutilmagan, kiyilmagan, toza; 4. yangi, toza, sof, musaffo; sogʻlom, bahridilni ochadigan; 5. koʻchma: yangi, hali hormagan, charchamagan, kuch-quvvat toʻplagan, bardam; 6. sovuq, salqin; 7. kuchli (shamol, toʻlqin haqida); 8. sogʻlom, hormagan, tetik, baquvvat; soʻlmagan, toza; 9. yangi, tiniq, yorqin, oʻngmagan, yaxshi saqlangan; 10. jarangli, jarangdor, tiniq; 11. yangi, shu bugungi, eng soʻnggi, yaqinda paydo boʻlgan (Большой русско узбекский словарь, 1984); Izohlardan koʻrinib turibdiki, “свежий” leksemasining tarjimasining aniq tushunilishi uchun oʻzi aniqlab kelayotgan narsa va hodisa(aniqlanmish)lar bilan bogʻliq holda oʻzbek tilida kashf etgan maʼno muqobillarini anglash, bilish, tajribada koʻrgan boʻlish zarur. Faqat, shundagina rus tilida aytilgan narsani oʻzbek tilida ham ayta olamiz-tarjima qilamiz. Shu maʼnoda “свежий хлеб” birikmasini (*tandirdan, pechkadan*) *yangi chiqqan, yangi uzilgan non,*” “свежая вода” soʻz birikmasini *toza suv, свежая тетрадь*ni esa *tutilmagan daftar* deb tarjima qilinsa, ruslar aytmoqchi boʻlgan xabarni oʻzbek tilida ham aytgan boʻlamiz.

Koʻrinib turibdiki, millatlararo bir-birovini tushunish, ularning qaysi millat sohibi ekanligiga qarab emas, ularning tillarini boyligi, ijtimoiy turmushga oid narsa va hodisalarning oʻz tillarida aniq ifodalay olish ongi, bilimi va hayotiy tajribasiga bogʻliq. Bu boradagi mulohazalarimizni nihoyasida yana shuni taʼkidlashni istardikki, inson hayotini taʼminlovchi bu ikki narsa(*non va suv*) xalqlararo (millatlararo emas), muayyan geografik muhitlarga nisbatan shaklan(koʻrinish), mazmunan(tarkibi) va isteʼmolda foydalanish jihatdan farq qiladi. Qarang! (Jumaniyazov A., Jumaniyazova D., Yusubova Ch., 2024, 130).

3. Tushuncha, kishilik olami obyektiv olamni chuqurroq oʻrgana borgan sari, differentsiatsiya qilib, alohida qismlari alohida tushuncha huquqini ola boradi. Avvalgi tushunchani ifodalagan soʻz maʼnosi esa kengligicha qolaveradi. Keyingi tor tushunchani ifodalash uchun soʻz maʼnosini toraytiruvchi birikma tuziladi. Masalan, yuqori isitma beruvchi, terlatadigan, yuqumli qon kasalligini *terlama* deyiladi. Uning maʼnosi shu tushunchani bildiradi. Tibbiyotdagi bilim taraqqiyoti

terida, ichakda o'tadigan toshma holatidagi tipini va ularga yondosh tipini aniqladi, ya'ni tushunchada differentsiatsiya sodir bo'ldi – tor tushunchalar yuzaga keldi. Ularni tilda ifodalash uchun *terlama* termini oldiga aniqlovchi orttirib, ma'no toraytirib ifodalanadigan bo'ldi: *tepkili terlama, ich terlama, yondosh terlama* kabi.

So'z ma'nosi va tushuncha o'rtasidagi tafovutni farqlashda bildirilgan uchinchi fikr ham umuman olganda teran chiqmagan. Chunonchi, kishilik olami obyektiv olamni chuqurroq o'rgana borgan sari, tushunchada differentsiatsiya sodir bo'ladi, tushunchaning alohida qismlari alohida tushuncha huquqini oladi, degan fikr muayyan e'tiroz uyg'otadi. Nainki, "tushuncha" mantiqan narsa va hodisa haqida umumiy ma'lumot, tasavvur, o'y-fikrlarni bildiradi, lekin qandaydir bir alohida qismlarga bo'linmaydi. "Tushuncha" alohida inson miyasi, qalbida shakllanuvchi ruhiy hodisa sifatida yaxlit narsa u differentsiatsiya qilinmaydi, qilmoqchi bo'lsangiz mantiqsiz chiqadi. Faqat uning ta'rifini "tushuncha" bu obektiv borliqdagi narsa va hodisalar haqida insonda paydo bo'lgan umumiy (konkret bo'lmagan) ma'lumot, yoki shu narsalar haqidagi tasavvur yo bo'lmasa narsa haqida hayolan o'ylash, muayyan fikrga kelish kabi "differentsiatsiya" lashgan izohlarini keltirish mumkin. Mazkur fikrimizni M.M.Mirtojiyev keltirgan misollar bilan tahlil qilishga harakat qilamiz. Olim "*terlama*" tushunchasini *yuqori isitma beruvchi, terlatadigan, yuqumli qon kasalligi* deb aniq va sodda izohlagan. Biroq, bu kasallikning yuzaga kelishi, turlicha kechishi, inson tanasi ichi(ichak)da va tashqarisi(teri)da aks etadigan toshma ko'rinishlari "terlama" tushunchasi bilan emas, "terlama" kasalligi bilan bog'liq. Zero, "tushuncha"ni alohida qismlarga bo'lmaymiz, balki "kasallik"ni alohida tur(qism)larga ajratamiz. "Tushuncha" ongimiz, "kasallik" esa tanamiz bilan bog'liq. "Tushuncha" mavhum narsa, "tana kasalligi" konkret narsa. Ularni "differentsiatsiya" sini almashtirib, biriga xos narsani ikkinchisining ostida tushunish mantiqan (falsafiy jihatdan) noto'g'ri yondashuvni bildiradi.

4. Tushuncha hamma vaqt umumlashgan xarakterda bo'ladi. Ma'no esa ayrim hollarda xususiy ifodaga ega ekanligi kuzatiladi. Masalan, atoqli otlar maxsus kishi yoki nimagadir xususiy holda beriladi. Ikkinchi tomondan qaralganda

esa, nimagadir shartli holda belgilangan atama – ramz deyish ham mumkin. Shuning uchun atoqli otlar haqida izoh ham berib bo‘lmaydi va uni tarjima qilish ham mumkin emas. Uning ayni xususiyatlaridan kelib chiqib ayrim tilshunoslar so‘z qatoriga qo‘shmaydilar, yo‘l harakati uchun qo‘yilgan belgilarga o‘xshatadilar. Har qanday holda ham u nutq tovushida qayd etiladi va xususan nimanidir bildiradi. Ya’ni u ma’nosida tushuncha bo‘lmagan so‘zdir.

Ma’no va tushuncha tavofutlari borasida aytilgan yuqoridagi tavsifdan-tushuncha umumiy bo‘ladi, ma’no xususiy ifodaga ega, atoqli otlar ramziy qo‘yiladi degan konkret xulosalar kelib chiqsa, masala mohiyati to‘g‘ri anglashilgan bo‘ladi, sharx uchun ham ayni muddaodir. Lekin, ma’no ayrim hollarda xususiy ifodaga ega deyilishi, qolgan hollarda ma’noni umumiy bo‘ladi degan “tushuncha”ni taqozo qilishi tabiiy. Bu esa fikrni chalg‘itadi. Zero, ma’no tarqatgan xabar aniq yoki mavhum bo‘lishi mumkin, lekin umumiy bo‘lmaydi, umumiylik olim ta’kidlaganidek tushunchaga xos xususiyat. Umumiylik va xususiylilikni farqlashda atoqli otlardan misol keltirish ham, bizning fikrimizcha muvaffaqiyatli chiqmagan.

Undan tashqari, *atoqli otlarning maxsus kishi yoki nimagadir xususiy holda berilishi* sharxi ham teran aytilmagan. Atoqli otlar, aslida, shaxs nomlari bo‘lib, u kishilarga (chaqaloq paytida) ramziy beriladi. Ayrim chaqaloq(kishi)ga nomlarning maxsus qo‘yilishi bu boshqa masala. Ya’ni chala tug‘ilgan bolani mukammal kishi bo‘lishini istab “Komil”, “Komila” atalishi, kasal dunyoga kelgan chaqaloqqa sog‘ayib ketishini xohlab “Salim”, “Salima” nomining berilishi va hokazo istaklarning nomda-atoqli otda aks etishi maxsus bo‘ladi, nom va shaxsning o‘zaro *xossatanligi* ifodalanib turadi.

Bundan tashqari olimning *atoqli otlar haqida izoh ham berib bo‘lmaydi va uni tarjima qilish ham mumkin emas, uni ayrim tilshunoslar so‘z qatoriga qo‘shmaydilar, yo‘l harakati uchun qo‘yilgan belgilarga o‘xshatadilar, xususan nimanidir bildiradi, ya’ni u ma’nosida tushuncha bo‘lmagan so‘zdir* degan mulohazalari tilshunosligimizda bahstalab fikrlardir. Darvoqe, atoqli otlar haqida izoh berish, ularni tarjima qilish muloqot vaziyati, muhiti va nom sohiblari istagiga

qarab, ayrim paytlarda zaruriyat bo'lib qoladi. Bu ijtimoiy turmush tajribasida boshdan kechirilgan narsa. Uning til norma va kodifikatsiya me'yorlariga to'g'ri yoki noto'g'ri kelishi, obektiv masalaga subektiv qarashlarning ham, ma'no va tushuncha tavofutini aniqlashda daxldorligi yo'q. Atoqli otlar so'z qatoriga qo'shilmaydi, ular ma'nosida tushuncha bo'lmagan so'zlar deb ta'kidlanilishining sababi bizga noma'lum. Biz ularni ta'kid ma'nosida tasavvur qilishga ham ojizmiz. Chunki, bizning nazdimizda so'z har qanday narsa va hodisaning nomi va har qanday so'z(nom)ning o'z ma'nosi bor. Ular (so'z, nom, atoqli ot) kishi ongi (miyasi, qalbi, ko'ngli)da doimo muayyan bir tushunchani albatta hosil qiladilar.

5. Aytilganiday, so'z ma'nosida tushuncha ifodalanmasligi, o'rnida ko'rsatish, ishora ifodalanishi ham kuzatiladi. Masalan, olmoshlar ma'nosi shunday ifodaga ega. Olmoshlarning hammasi ham birday tushunchadan xoli ma'noga ega deb bo'lmaydi. Ayniqsa, belgilash va gumon olmoshlari ma'nosida nihoyatda mavhum bo'lsa ham, tushuncha bor. Lekin kishilik, o'zlik, ko'rsatish ma'nolari asosan ishora va ko'rsatishga tayanadi.

M.M.Mirtojiyevning tahlil qilinayotgan mavzu yechimi bo'yicha, beshinchi tavsiyasi ham, fikrimizcha, teran chiqmagan. Olim bu safar ma'no va tushuncha farqlarini olmosh so'z turkumlari misolida ko'rsatishga harakat qiladi. Agar biz olim fikrlarini to'g'ri tushungan bo'lsak, u ta'kidlaydiki, *ayrim olmoshlar(gumon, belgilash) ma'nosida mavhum bo'lsada tushuncha bor, biroq kishilik, o'zlik, ko'rsatish olmoshlarning ma'nolari asosan ishora va ko'rsatishga tayanadi-lekin tushuncha yo'q!?!?* Mazkur ta'kid yana muayyan e'tirozlarni taqozo qiladi. Binobarin, olmoshlarning barcha turlari so'z turkumi sifatida o'z ma'nolariga ega. Ular ot yoki otlashgan so'z turkumlarining o'rnini bosa oladi, birining o'rniga ikkinchisini muloqotdagi o'rniga qarab almashtirib qo'llash mumkin. Tildagi bu fenomenal hodisa (bir so'z turkumi o'rnida ikkinchisini qo'llash va muloqotda ko'zlangan maqsadni to'g'ri ifodalay olish) ning nomlanishi ham ismiga jismiga monandir. Jumladan, olmosh roman-german tillarining barchasida "pronomen" (*ot uchun, ot o'rniga*), fors tilida "zamid" ko'pligi "zamoyir" (*almashtirish*), ruschada "местоимение" (*nomlar o'rnida qo'llaniladi*) ma'nolariga ega. Ya'ni u shunday

soʻz turkumi-ki, nom bilan bogʻliq barcha soʻz turkumi (bu rus tili grammatikasida aniq koʻrinadi: имя существительное, имя прилагательное, имя числительное qabilida rus morfologiyasida qoʻllaniladi)ning muqobili boʻlib kelishi mumkin. Har bir soʻz oʻz maʼnosiga ega boʻlgani kabi, tabiiy ravishda soʻz turkumlarining ham maʼnosi boʻladi, shu zaylda olmosh va uning barcha turlarini ham.

Olimning navbatdagi *ishora bor, tushuncha yoʻq* fikri ham chalkash. Zero, tushuncha boʻlmasa, ishora nimaga asoslanadi. Fikrimizcha, har qanday ishora ostida muayyan tushuncha va maʼno yotadi. Va shu maʼno yoki tushuncha qilinayotgan ishoraga asos boʻladi. Ishoralarning hayotda intuitiv(*beixtiyor*) kechish holatlari ham kuzatiladi. Lekin buning bizning mavzumizga aloqasi yoʻq. Uning bilan ilmiy shugʻullanish psixologiya va psixolinguistikaning vazifasi.

6. Soʻz maʼnosida tushuncha ifodalanmay, his yoki hayajon ifodalanishi mumkin. Masalan, undov soʻzlar maʼnosi shu xususiyatiga ega. *Oh* degan undov soʻz ogʻriq hissi maʼnosini ham, zavqlanish hayajoni maʼnosini ham, taʼmdan lazzat his qilganlik maʼnosini ham beradi. Biroq bular tushuncha emas.

Mazkur mulohaza boʻyicha olim taʼkidlayotgan fikr ham muayyan bahs talab qiladi. Aslida bu fikrni oʻz vaqtida taniqli tilshunos M. Irisqulov ham taʼkidlagan edi. U aytgan ediki, iqtibosni (Ирискулов М., 1992, 98; Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М., 1981, 94-95) aynan keltiramiz. “Maʼlumki, soʻzning moddiy qobigʻi (tomoni) tushunchaning ishorasi deb qaraladi. Bu oʻrinda soʻzning maʼnosini ham tushunchaning ishorasi deb boʻladimi? Yoʻq, albatta, chunki soʻzning maʼnosi soʻz va predmetning birgalikda aks etishidir: *soʻzning maʼnosi tushunchani ifodalamaydi*, balki tushunchaning tashkil topishida va rivojlanishida asos sifatida vositachi xizmatini oʻtaydi.” Olimning yuqoridagi mulohazasida *soʻzning maʼnosi tushunchani ifodalamaydi* degan fikr, bizningcha, majhul darajada ifodalanib, *soʻzning maʼnosida tushuncha ifodalanadi* degan maʼqul. Zero, olim yuqoridagi (inkor)fikrni... (maʼno) tushunchaning tashkil topishida va rivojlanishida asos sifatida vositachi xizmatini oʻtaydi degan xulosasi bilan bizning fikrimiz oʻz-oʻzidan maʼqullangan boʻladi. M.M.Mirtojiyev oʻzi (shu jumladan M. Irisqulov)ning fikrini quvvatlash maqsadida xis-hayajon soʻzlarini

misol qilib keltiradi va ta'kidlaydiki, xis-hayajon ifodalovchi, (*aynan undov*) so'zlar go'yo tushuncha ifodalamaydilar. Aytadiki, "oh" undov so'zining muloqotda anglashilishiga qarab: og'riq xissi, hayajon, ta'mdan lazzat his qilganlikni ifodalashi mumkinligiga ishora qilinadi. Bu to'g'ri. "Oh" hayajon so'zi orqali nafaqat insonning yuqoridagi uch vaziyati, balki undan ham ko'p hissiy holatlarni tushunish mumkin. Jumladan izohli lug'atimiz "oh"ning 1. Quvonch, zavq, qoyil qolish kabi his-tuyg'ularini ifodalaydi. 2. Sog'inish, intizorlik kabi ma'nolarni ifodalaydi. 3. Achinish, dard-alam, hasrat tuyg'usini ifodalaydi. 4. Og'riq, dard tuyg'usini ifodalaydi. 5. ot vazifasida. Dod-fig'on, nola, afg'on, zorlanish ma'nolari qayd qilingan. (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд, 194) Nemis tilida uning ikki ma'nosi- hayrat, quvonch va biror narsa - hodisaning tasodifan anglashilishi- esga kelishi qayd qilinadi (DUDEN Deutsches Universalwörterbuch, 2006, 114). Demak, ular ostida tushuncha borligi ta'kidlaniladi. Qizig'i shundaki, mazkur tilda bizdagi "oh" his-xayajon(uning nemis tilida "ah" imlo va talaffuzi bor) so'zining otlashgan (das Ah) shakli ham so'zlashuv tilida keng qo'llaniladi. "Oh" so'zi bobida keltirilgan va uning nemis tili bilan qiyoslashlardan maqsadimiz shuki, nafaqat bu his-xayajon so'zi balki boshqalari ham muayyan ma'no va tushunchalarga ega. Ularni ma'nosi bor, tushunchasi yo'q yoki tushunchasi bor, ma'nosi yo'q deb baholash mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Endi "ma'no"(die Bedeutung) va "tushuncha"(der Begriff) masalalarining nemis tilida o'rganilishiga kelsak, ularning bu boradagi fikrlari aksariyat jihatdan o'zbek tilshunoslarnikiga o'xshasa ham, ayrimlarida muayyan farqlar bor. Jumladan: a) so'z ma'nosi bu uning qo'llanilish(tushunilish) qoidasidir. Bu ta'rif bilan aytilmoqchiki, muayyan so'z ma'nosi muayyan qoidaga asosan tushunilishi kerak, ya'ni har bir so'zning qo'llanilish qoidasi bor; b) so'z ma'nosi bu so'z ta'sirida paydo bo'ladigan (assotsiativ) tasavvurlar. Ta'kidlanilmoqchiki, muayyan so'zni eshitgan har bir suhbatdosh u orqali ishora qilinayotgan narsa va hodisalarning ko'z oldiga keltiradi; c) so'z ma'nosi bu so'z ko'rsatgan tushuncha. Aytilmoqchiki, so'z tushuncha hosil qiladi; e) so'z bu so'z orqali paydo bo'lgan

konsept. Uqtirilyaptiki, soʻz orqali muayyan fikrlar, qarashlar, gʻoyalar shakllanadi (Rudi Keller, 1996, 47-48).

Nemis tilshunoslari talqinida maʼno bu tilning semantik sathida markaziy (asosiy) tushuncha boʻlib, u nazariy jihatdan turli xil sharxlaniladi va turfa joyda undan foydalaniladi (Hadumod Bußmann, 2002, 116-117). Maʼnoga turfa variantli sharxlarning berilishining oʻziga yarasha sabablari bor: Birinchi sabablardan biri shuki, maʼnoni nafaqat semasio-logiya predmeti sifatida, balki u bilan falsafa, psixologiya(ruxshunoslik), sotsio-logiya(jamiyatshunoslik), semiotika(belgilar nazariyasi, noverbal tilshunoslik), xuquqshunoslik, xudojoʻylik fanlari ham shugʻullanadi va oʻrganadi. Ikkinchi sabab, nemis tilshunosligida “maʼno” (die Bedeutung) atamasiga variantdosh ingliz tilidan kirib kelgan *content, meaning, reference, intension, extension* va fransuz tilidagi *signification, designation* kabi terminlar borki, ularning tub maʼnolaridagi oʻxshashlik va farqlar vaziyatga qarab “maʼno”(die Bedeutung) tushunchasi bilan mushtaraklashadilar va daxldorlik darajasiga ishora qiladilar. Yoxud tillararo farq va oʻxshashlik “maʼno” ning maʼnosiga(die Bedeutung von Bedeutung yoki the meaning of meaning) assotsiativ bogʻlab tushunadilar. “Maʼno”ning bir tilda aytilgan taʼrifiga ikkinchi va uchinchi tilda aytilgan taʼriflar ruhan qoʻshilib yoki bogʻlanib turadi va mavzu tahlilida muayyan maʼnoda dastak(yordamchi) boʻlishadi. Germanistikada “maʼno” tushunchasi xususan soʻz va iboralarga xos deb oʻrganiladi. U orqali anglashiladigan *hayot maʼnosi, turmush maʼnosi, vaqt maʼnosi, sevgi maʼnosi* kabi “koʻchma” tushunchalarga umumiylik nuqtai nazardan qaraladi. Jumladan, nemis tilshunosi E. Lang “til vositalari (soʻz va iboralar) oʻzlaridan tashqaridagi narsa va hodisalar haqida maʼno tashuvchilardir” deydi (Lang E., 1983, 65-144).

Nemis tilshunoslaridan M. Bierwisch (Bierwisch M., 1979, 119-148), E. Coseriu (Coseriu E., 1987, 23), J. Lyons (Lyons J., 1991, 1-24), A. Stechow (Stechow A., 1991, 90-148), D. Wunderlich (Wunderlich D., 1991, 32-52)larning maʼno va tushuncha bobidagi ishlari bilan tanishar ekanmiz, ularning “maʼno”ni 4 nuqtai nazardan oʻrganilishini tavsiya qiladilar: a) maʼnoning sistem xarakterililigi; b) tushuncha hosil qilishiga qarab (mental xarakter); c) narsa va hodisaga ishora

qilishligi; d) interaktiv xususiyat(ifoda, maqsad va ta'sir)lari asosida tahlil qilinishini maqsadga muvofiq deb biladilar.

XULOSA

Ma'no va tushuncha biror narsa va hodisani anglashda bir-biri bilan uzviy bog'liq falsafiy hodisalardir. Ma'no biron narsa va hodisa haqida xabar, ma'lumot bersa, tushuncha berilayotgan xabar yoki ma'lumotni anglash darajasidir. Berilayotgan xabar yoki ma'lumot aniq, to'laqonli anglashilmasa yoki umumiy tasavvur qilinsa "tushuncha" bo'ladi. "Tushuncha" so'zi ma'nosini ramziy ravishda, ham falsafa ham tilshunoslik nuqtai nazardan yondashib, quyidagicha tahlil qilish mumkin. Avvalo, mazkur so'z tahliliga morfologik jihatdan yondashamiz va uni "tush"(tushmoq fe'lining o'zagi), "un"(o'zlik yuklamasi), "cha"(kichraytirish) morfemalariga bo'lamiz. Endi mazkur morfemalar ma'nolariga falsafiy (ong va tafakkur) tavsif beramiz. "Tush"- tushmoq fe'lining o'zagi sifatida narsa va hodisalarning biron joyga tushushini bildirgani bois, uni ramziy ravishda "qalb(miya)ga tushish" ma'nosida qabul qilamiz va *narsa va hodisa haqidagi xabar qalb(miya)ga tushadi*, degan xulosaga kelamiz. "Un"-o'zlik yukamasini ham o'z ma'nosida tushunamiz va *o'zingning qalbi(miya)ngga tushir*, degan mushohadaga kelamiz. "Cha" qo'shimchasini ham o'z (kichik, kichraygan) ma'nosida qabul qilamiz va berilgan xabar miqdori kichik ekan, degan fikrni anglaymiz. Shundan umumiy xulosa kelib chiqadiki, "tushuncha" *deganda har kimning o'z qalbi(miyasi)ga tushgan kichraygan, to'laligicha qabul qilinmagan muayyan xabar yoki ma'lumot* anglashiladi. Bu esa muayyan ma'noda "tushuncha" so'ziga berilgan ensiklopedik ma'lumotlarga to'g'ri keladi. Faqat, lug'atlarda "umumiy" (aniq bo'lmagan) sifatlovchisini qo'shib mushohada qilmoq kerak.

Maqolaga xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, "ma'no" va "tushuncha" bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisalar bo'lib, ikkalasi ham muayyan so'z orqali berilayotgan xabar yoki ma'lumotni bildiradi. O'zaro farqi esa, "ma'no" orqali anglashayotgan xabarni aniq va xususiyligi, "tushuncha" orqali esa ma'lumotni noaniq va umumiyligi bilan ajralib turadi. "Tushuncha" so'z yoxud so'z orqali nomlangan narsa va hodisa haqida to'la bilimga ega emaslik, yoki umumiy (aniq

va konkret bo‘lmagan) tasavvur mushohadasini bildiradi. Shu asnoda, kishi ongida hosil bo‘lgan “tushuncha”ni so‘z “ma’no”si orqali anglashilgan aniq(konkret) ma’lumot borasida muayyan fikrga kelish daraja-miqdori desa bo‘ladi. Yana lo‘ndaroq aytganda, ma’no(so‘z) tushuncha uyg‘otadi, tushuncha nazddagi narsa va hodisa haqida bo‘ladi. Ma’no(so‘z) ham, tushuncha ham narsa va hodisaning zamiri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. DUDEN Deutsches Universalwörterbuch / Projektleitung Ralf Osterwinter. – Mannheim: Brockhaus AG, 2007. –2016 S.
2. Hadumod Bußmann. Lexikon der Sprachwissenschaft. – Stuttgart: Alfred Kröner Verlag, 2002. –783 S.
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 224 б.
4. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie. – Ленинград: Просвещение, 1970. - 294 S.
5. Mirtojiev M.M. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, 2000. –79 б.
6. Mirtojiev M.M. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. –284 б.
7. Mirtojiev M.M. Семасиологияси. –Тошкент, 2008. –99 б.
8. Mirtojiev M.M. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: Фан, 1984. – 139 б.
9. Riesel E., Schendels E. Deutsche Stilistik. –Moskau:Verlag Hochschule, 1975. – 314 S.
- 10.Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 224 б.
- 11.Ҳожиёв А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент:Фан, 1981. – 312 б.
- 12.Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилдли / Mas’ul muharrir A. Madvaliyev.– Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.

REFERENCES

1. Responsible editor Ralf Osterwinter. (2007) *DUDEN Deutsches Universalwörterbuch*. Mannheim. Brockhaus AG. 2016 p.
2. Hadumod Bußmann. (2002) *Lexicon of Linguistics*. Alfred Kröner Publishing House Stuttgart. 783 p.
3. Irisqulov M. (1992) *Introduction to Linguistics*. Tashkent. O‘qituvchi. 224 p.
4. Iskos A., Lenkova A. (1970) *German Lexicology*. Leningrad. Prosveshchenie. 294 p.
5. Mirtojiyev M.M. (2000) *Lexicology and Lexicography of the Uzbek Language*. Tashkent. 79 p.
6. Mirtojiyev M.M. (2010) *Semasiology of the Uzbek Language*. Tashkent. Mumtoz So‘z. 284 p.
7. Mirtojiyev M.M. (2008) *Semasiology*. Tashkent. 99 p.
8. Mirtojiyev M.M. (1984) *Polysemy in the Uzbek Language*. Tashkent. Fan. 139 p.
9. Riesel E., Schendels E. (1975) *German Stylistics*. Moscow. Higher School Publishing House. 314 p.
10. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. (1981) *Introduction to Linguistics*. Tashkent. O‘qituvchi. 224 p.
11. Hojiev A., Ahmedov A. (1981) *Lexicology of the Uzbek Language*. Tashkent. Fan. 312 p.
12. Responsible editor A. Madvaliyev. (2020) *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. 5 Volumes. Tashkent. Usbekistan.